

TARIX FANI NIMANI O'RGANADI?

Inomaliyev Asadbek Ilxomjon o'g'li
Oriental Universitetining talabas

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo'ladi.
O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: *Ushbu ommabop maqola tarixiy badiiy uslubda sarlavha qismimizga javob beradi. Tarixni nima uchun o'rganishimiz kerak, tarixning bizga qanday foydali taraflari bor. Tarix fanining mazmuni, uning o'rganish obyekti va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Tarix hozirgi kunimizda qanchalik darajada zaruriy ekanligini yoritishga harakat qilaman. Maqolada turli xil manbalardan hamda ko'zga ko'ringan va ko'pchilikka o'zining ilmi hamda ziyrakligi bilan tanilgan olimlarimizning fikrlaridan keltiraman. Maqsadim holis, bu maqolaning natijasida tarix faniga kirayotgan yoki qiziqish arafasida turganlar uchun turki bo'ladi degan umiddaman va tarixiy manbalar haqida ham ma'lumotlar taqdim etaman. Maqsadim tushunarli bo'lgan bo'lsa, annotatsiya qismimizni yakunlagan holimda kirish qismiga o'tsak ham bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Tarix, moddiy manbalar, yozma manbalar, arxiv, tarixiy hujjatlar, avesto.*

KIRISH

Insoniyat qadimdan o'zining o'tmishini bilishga qiziqib kelgan. Har bir xalq o'z tarixini o'rganish orqali kimligini, ildizini va taraqqiyot yo'lini anglab yetadi. Shu bois tarix fani insoniyat ilmlari ichida muhim o'rin tutadi. Tarixni o'rganishlik hozirgi kunimizda zarur hisoblanadi, nega-ki, biz o'tmishimizdan hulosa chiqargan holimizda o'z kelajagimizni qura boshlaymiz. Hoh oilaviy masala bo'lsin yoki ijtimoiy masala bo'lsin, qolaversa meditsina sohasi bo'lsin, siyosatshunoslik bo'lsin, tadbirkorlik bo'lsin, harbiylarimiz bo'lsin va pedagoglarimiz va h.k. barchalari uchun tarix zarur, chunki usha o'zining sohasini tarixini o'rganishligi bilan, o'z kasbidan kelib chiqqan holida kelajagini barpo etadi. Hammasidan ham eng kerakligi u kimsalar shu kunlarga qanday yetib kelgani, va kimlarga borib taqalishini, vatani hamda dunyosini shu kungacha nimalarni boshidan o'tkazganligini bilishligi undan ham zarurdir. Ko'rib turganingizdek tarixni o'rganishlik dolzarb masala. Umumiy aytadigan bo'lsam tarix barcha kasb-hunarlarining yoki insoniyatning kelib chiqishi, rivojlanishi hamda hulosa chiqarishlik uchun xatolarini ham o'rganadi.

ASOSIY QISIM

Tarix umuman olganda o'tmish haqidagi fan hisoblanadi. "Tarix" arabcha so'z bo'lib, "o'tmish", "o'tgan voqealar haqidagi hikoya" degan ma'noni bildiradi. Umuman olganda

” Tarix fani: o’tmish kaliti, kelajak yo’lchisi”. O’tmish kaliti- tarix fani insoniyatning o’tmishida sodir bo’lgan voqea- hodisalar, qadiriyaqlar, urf-odatlar, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o’rganish orqali bizga o’sha davr hayotini ochib beradi. Go’yo kalit eshikni ochgandek, tarix ham o’tmish sirlarini ochib beradi. Kelajak yo’lchisi- tarixni o’rganish orqali inson va jamiyat o’z kelajagini to’g’ri belgilashi, xatolardan saboq olib, yutuqlardan ilhomlanishi mumkin. Bu- kelajak sari to’g’ri yo’l ko’rastuvchi yo’lchi yoki yo’l-yo’riq beruvchi demakdir. Tarix nimani o’rgatadi? Insoniyat xotirasi haqida mushoxada- tarix insoniyatning o’tmish tajribalaridan saboq olishni o’rgatadi, qaysi yo’l to’g’ri, qaysi yo’l xatoli bo’lganini ko’rsatadi, buyuk siymolarning hayoti va faoliyatidan ibrat olishni ta’minlaydi, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini anglash imkonini beradi. Tarixni ” insoniyat xotirasi” deb atash bejiz emas. Chunki xotira bo’lmasa, inson o’zini yo’qotadi, huddi shunday, tarixsiz millat o’z ildizidan uzulib qoladi, mushoxada deganda, tarixni nafaqat yodlash, balki undan fikr chiqarish, saboq olish, o’zini kelajakda to’g’ri yo’naltirish tushuniladi. Bu ibora shuni anglatadiki, tarix- faqat sanalar ketma-ketligi emas, balki insoniyatning umumiy xotirasi, ruhiy merosi va kelajakni belgilovchi bilim manbai hisoblanadi. Tarix- kechagi kunni bilib, ertani yaratish ilmi, kechagi kunni bilish tarixning asosiy vazifasini bildiradi, ya’ni o’tmishni o’rganish. Avvalgi avlodlarning hayoti, faoliyati, g’oyalari va tajribalarini o’rganadi, davlatlar, jamiyatlar va madaniyatning shakillanish yo’lini tahlil qiladi, insoniyat qanday yo’ldan o’tganini ko’rsatadi, o’tmishdagi xatolarni takrorlamaydi, ilgari erishilgan yutuqlarni davom ettiradi, kelajakni ongli ravishda, o’tmishdan saboq olib quradi ya’ni tarix- faqat o’tmish haqida emas, kelajakni to’g’ri qurish uchun zarur ilmdir. Bu yerda ”ilm” degani- tarix oddiy voqealar ketma-ketligi emas, balki tahlil, tadqiqot va xulosa chiqarish asosidagi ilmiy jarayon ekanligini bildiradi. Tarix o’tmishni o’rganib, kelajak uchun yo’l-yo’riq beradi va bu uni boshqa fanlardan ajratib turadi. Tarix odamlarning eng qadimgi zamonlardan to hozirgacha bosib o’tgan hayot yo’lini aks ettiradi. Bugungi hayotni qanday qurganligi, odamlarning uzoq va yaqin o’tmishda nima bilan mashg’ul bo’lganliklari haqida ma’lumot beradi. Ularning qanday yashaganliklari hamda qanday tarixiy voqealar yuz berganligini o’rgatadi. Tarix fani, avvalo, insoniyatning o’tmishini, jamiyatlarning rivojlanish jarayonini, davlatlarning tashkil topishi va yemirilishini, urf-odatlar, madaniyat hamda ilm-fan taraqqiyotini o’rganadi. Tarixning asosiy vazifasi- o’tmishda sodir bo’lgan voqea- hodisalarni holisona tahlil qilib, ularning sabablari va oqibatlarini ko’rsatishdir. Shuningdek, tarix insoniyatga: xatolardan saboq olish, buyuk siymolarning hayoti va faoliyatini o’rganish, jamiyat taraqqiyotidagi qonuniyatlarini anglash imkonini beradi. Tarix fani faqat siyosiy voqealar emas, balki xalqning iqtisodiy hayoti, turmush tarzi, diniy qarashlari va madaniy merosini ham o’rganadi. Shu ma’noda tarix- bu insoniyat xotirasi, millatning ruhi va ma’naviyati manbaidir. Tarix fani insoniyatni o’tmish saboqlari orqali kelajakni ongli, adolatli va ma’naviy yo’lda qurishga o’rgatadi. Yana shuni aytmoqchimanki har bir xalq, millat yoki shaxs o’z o’tmishini bilmasa, kimligini ham anglamaydi, tarix millatning ildizi, u yo’q bo’lsa, daraxtning mevasi yo’q bo’lganday bo’ladi, o’tmishni unutgan jamiyat o’zini takrorlaydi, xatolarini qayta qiladi va yo’nalishini yo’qotadi. O’tmishni bilish- bu faqat tarixiy faktlarni yod olish emas, balki ulardan saboq olish, ibrat chiqarish, milliy g’ururni

uyg'otish demakdir. O'tmishni bilgan inson- o'z millatining qadrini biladi, qadryatlariga hurmat bilan qaraydi, mustaqil fikirlaydigan, ongli shaxsga aylanadi. O'tmishdagi buyuk allomalar, sarkardalar va islohotchilarning hayotini o'rganish bizni ma'naviy jihatdan boyitadi va kelajada qanday yo'l tutishimiz kerakligini ko'rsatadi. Insoniyat kelajagi o'tmish tajribasiga tayanadi. Tarixni bilish- bu faqat o'tmishni eslash emas, balki kelajakni ongli ravishda qurish uchun zarur shartdir. Fan jihatidan qaraydigan bo'lsak, tarix fani: xotira, saboq va taraqqiyot manbai. Tarix insoniyat xotirasini asraydi, o'tmishdan saboq beradi va shu saboqlar asosida kelajak taraqqiyotiga yo'l ochadi. Inson o'z tarixini bilmas ekan, hayot yo'lida yo'nalishsiz qoladi. Tarix fani esa o'tmishdan saboq olib, kelajakni ongli, adolatli va nurafshon yo'lda qurishga o'rgatadi.

Mashxur Tunislik olim Abdurahmon ibn Muhammad ibn Xaldun al- Hadramiyning "Muqaddima" nomli kitobida tarix haqida shunday deganlar: Tarix san'ati- bu shunday fanki, uni har bir xalq avlodlar uchun avaylab saqlaydilar. Chunki unda buyuk ibratlar bor. Unda ne-ne karvonlar kechmishi, buyuk safarlar tafsiloti, olamga maydon o'qigan podshoxlar siyosati mujassam etilgan.

Tarix-o'tgan zamonlar, saltanatlar va asrlardan habar beradi. Bu habarlar majlislarda zavq bilan hikoya qilinadi. Bu insoniy jamiyatlarda qanday o'zgarishlar bo'lgani, davlatlar qanday kengayib, qanday so'ngani bayon etiladi.

Haqiqiy tarixchi mana shu kechmishlarning ichiga kiradi. Mulohaza qilib, o'quvchiga voqealarning sabablarini anglatadi. Hodisalarning qanday yuzaga kelganini, nega yuz berganini tahlil qilib beradi. Shu sababli, bu fan donolikning asliy va qadimiy bo'lagi bo'lib, donishmandlik ilmlari qatoriga kiradi.

Tarix ilmi- o'z yo'li, maqsadi va manbalari bilan noyob, juda foydali va nihoyatda sharaflil bir fandir. U bizning o'tgan xalqlarning hulqlari, payg'ambarlarning hayot yo'li, podshohlarning davlatlari va siyosatlari bilan tanishtiradi. Bu orqali, dunyo va din ishlari bilan shug'ullanishni istaganlar uchun ibrat va o'rnak olish mumkin bo'ladi.

Bu fan turli manbalarga, keng bilimlarga, puxta tahlil va diqqatli tekshiruvga muxtoj. Ana shundagina, inson haqiqatga yetadi va xatolardan, noto'g'ri xulosalardan saqlanadi. Chunki tarixiy habarlar faqatgina rivoyat shaklida qabul qilinsa, odat, siyosat, ijtimoiy tuzum va insoniyat jamiyatning tabiati e'tiborga olinmasa, o'tmish hodisalari hozirgi holatlarga solishtirilmasa, unda xatolik, noto'g'ri yo'lga kirish va rostlikdan chekinishdan qochib bo'lmaydi.

Bunday holatlarni tarixchilar, mufasssirlar va rivoyat ustalari ko'p marta boshidan kechirgan. Ular voqea-hodisalarni faqat yetib kelgan habarlarga tayanib, chuqur tahlil qilmasdan, uxshash holatlar bilan solishtirmasdan, hikmat bilan o'lchamasdan, ko'r-ko'rona qabul qilib, haqiqatdan yiroqlashgan, hayol va xato botqog'ida yo'lini yo'qotgan

Hususan, mol-dunyo va qushinlar sonini hisoblashda bo'lgan xatoliklar juda aniq ko'rinadi. Raqamlarda ko'pincha burttirish va asossiz gap-so'zlar yuzaga chiqadi. Ularning asl mezonlariga solib ko'rmasdan, qoidalar bilan tekshirmasdan qabul qilib bo'lmaydi.

Tarixiy manba. Tarix fani tarixiy manbalar asosida yaratiladi. Tarixiy manba- bu inson qo'li bilan yaratilgan barcha narsalar va yozib qoldirilgan ma'lumotlar hamda kitoblardir. Manbashunos olimlar ularni sinchiklab o'rganadilar va tarix fani uchun zarur ma'lumotlar

to'playdilar. Tarixiy manbalar, o'z navbatida, moddiy (ashyoviy) va yozma manbalarga bo'linadi.

Moddiy manbalar. Moddiy manbalar- qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari, ular yashagan makon, turar joylarning, qal'a va shaharlarning, uy-ro'zg'or hamda zeb-ziynat buyumlarning qoldiqlari. Shuningdek, qazish natijasida topilgan tangalar, gerblar, muhrlar hamda mehnat qurollaridir. Moddiy manbalarni arxeologlar to'plashadi. Ular o'tmishda odamlar yashagan deb taxmin qilingan manzilgohlarda qazish ishlarini olib boradilar. Shu yo'l bilan moddiy manbalarni tashkil etuvchi turli ashyolarni topadilar. Ularning yaratilgan vaqtini va yoshini aniqlaydilar. Umuman olganda moddiy manbalarga mehnat qurollari, harbiy qurol-yarog'lar, tanga pullar, uy-joylar, qabrlar, devoriy tasvirlar, qal'a, shaharlar va taqinchoqlarga uxshagan narsalar kiradi.

Yozma manbalar. Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turidir. Bundan qariyb besh ming yil avval ayrim xalqlar o'sha davrga mos alifbo yaratganlar.

Qoyatosh va qattiq buyumlarga o'sha davr voqealarini yozib qoldirganlar. Keyinchalik hayvon terisi, daraxt po'stlog'i va qog'ozga yozishni o'rganganlar, ularni arxivlarda saqlaganlar. Bunday yozuvlarning ma'lum qismi bugungacha yetib kelgan. Yozma manbalarga yozuv belgilari, toshga yozilgan bitiklar, teriga, qog'ozga yozilgan ma'lumotlar, xalqlar hayoti va tarixda yuz berga voqea va hodisalar haqida yozilgan kitoblar, davlat boshliqlarining yozma shakldagi farmonlari, yer va qimmatbaho narsalarni in'om qilish, meros qoldirish, sotib olish bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlar. Shu qatorda shu narsani aytib ketadigan bo'lsam, O'zbekiston tarixiga oid eng qadimgi yozma manba- "Avesto" kitobi. Qadimgi Xorazim, Sug'd, Baqtriya alifbolarida va turkiy harfda bitilgan yozuvlar ham Vatanimiz tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, qadimgi Eron hukumdorlarining bitiklari, qadimgi Yunoniston(Gretsiya), Rim va Xitoy olimlarining asarlarida ham Vatanimiz tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

Tarix-milliy o'zlik, madaniy o'zlik va shaxsiy o'zlikni anglashga yordam beradi. Tarix manfa'atlar tuqnashuvi asnosida yahlit kishilik jamiyati mohiyatini o'zida mujassam etadi. Zotan, inson tarixining yaratuvchisi, misilsiz taraqqiyot va tanazzullar silsilasining ijodkori va merosxo'ri. Demak, tarixshunoslik mohiyati insonshunoslik, jamiyatshunoslik, falsafiy tafakkur va mintaqaviy mushohada sintezi. Tarix- inson mohiyatining inikosi. Tarix bir-tarozi. Tarozining bir pallasida yuksak madaniy taraqqiyotining oliy darajalarini, ikkinchi pallasiga-ziddiyatlar, boj, toj uchun kurashlarni ma'naviy chekinish davrlarining qayg'uli oqibatlarini quyadi. Tarix, uning mohiyati, silsilalari, taraqqiyot va tanazzullari yaxlit olganda bevosita insoniyat tarixiy rivojlanish bosqichlarining o'ziga hos maxsuli. Darhaqiqat, inson tarixining yaratuvchisi, ijodkori va ishtirokchisi sifatida kishilik jamiyat taraqqiyoti mohiyatini o'zida mujassam etadi. Demak, tarixshunoslik yaxlit olganda insonshunoslik uning ruhiy olami mavjudligi, mavjudod sifatida kechinmalari, manfa'atlar tuqnashuvi va ustuvorligi jarayonidagi mantiqiy hodisalar talqinidir. Ana shu jihatdan qaraganda tarixni o'rganish falsafiy mushohada, tafakkur bilan bog'liq bo'lgan voqeilikdir.

Shu urinda Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining "Iymon" nomli kitoblarida tarix va sotsiologiya mavzusiga ham tuxtalib utaman, kitobda Qur'on musulmon kishining ko'z oldida turgan mavjudodlarni urganishga chaqiribgina qolmay,

avvalgi utgan xalqlarning tarixi, ularning obodonchilik yulida olib borgan ishlari, havoii nafsiga berilib, oqibatda halokatga uchraganlarini ham urganishga undagan deb yozadilar.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar hamda bildirilgan fikirlar shuni anglatadiki, tarix fani insoniya sivilizatsiyasining shakillanishi va rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda o'rganadigan kompleks fan bo'lib, u jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillarni har tomonlama tadqiq etadi. Tarix fanining asosiy vazifasi- o'tmishda sodir bo'lgan voqea va hodisalarni aniqlash, ularning haqiqiy manzarasini tiklash, sabab-oqibat munosabatlarini ochib berish, ijtimoiy jarayonlarning vaqt va makondagi o'zgarish dinamikasini tahlil qilishdan iboratdir. Shu bois tarix nafaqat voqealar ketma-ketligini yodlash yoki bayon etish emas, balki jamiyat rivojining ichki qonuniyatlarini anglashga xizmat qiluvchi chuqur ilmiy izlanish maydonidir.

Tarixiy jarayonlarni o'rganish jarayonida manbashunoslik, arxeologiya, etnologiya, antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi ko'plab qo'shimcha fanlar bilan uzviy bog'liq holda ishlash talab etiladi. Mazkur integrative yondashuv tarix fanining samaradorligini oshiradi, o'tmish haqidagi bilimlarning ilmiy ishonchliligini ta'minlaydi va tarixiy xulosalarning yanada puxta bo'lishiga xizmat qiladi. Zero, tarixiy haqiqatni tiklash jarayoni faqat turli manbalarni solishtirish tahlil qilish va tanqidiy yondashuv orqali amalga oshiriladi.

Tarixni o'rganish zamonaviy jamiyat uchun ham nihoyatda muhimdir. O'tmish tajribasini chuqur anglagan jamiyat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri yo'naltira oladi, milliy manfa'atlarini himoya qiluvchi samarali mexanizimlarini shakillantiradi. Shu ma'noda, tarix fani milliy o'zlikni anglaqs, tarixiy xotirani mustahkamlash, ma'naviy qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazish va milliy davlat qurulishi jarayonida nazariy hamd amaliy ahamiyatga ega ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tarix fani insoniya o'tmishini o'rganish orqali jamiyatning bugungi holatini anglash va kelajakni ongli ravishda rejalashtirish imkonini beruvchi fundamental ilmiy tizimdir. Uning natijalari nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki keng ijtimoiy qatlamlar uchun ham muhim bo'lib, tarixning o'rganilishi jamiyat taraqqiyotining ajralmas sharti sifatida namayon bo'ladi.